O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/3(113)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNING O‘RNI HAMDA XAVF-XATARLARNI BOSHQARISHDAGI TA’SIRI



Shahzod FAYZIYEV,
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada milliy xavfsizlikni ta’minlashda strategik rejalashtirishning o‘rni va ahamiyati, uning nazariy-metodologik asoslari, maqsad va vazifalari, an’anaviy strategik rejalashtirishdan farqli jihatlari, xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish mexanizmlari, shuningdek, o‘zgaruvchan xavfsizlik muhiti sharoitida strategik qarorlarni shakllantirish va amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy xavfsizlik, xavf, strategik rejalashtirish, baholash, ko‘rsatkich, xavf-xatarni aniqlash va boshqarish.*

Аннотация: в данной статье комплексно исследованы роль и значение стратегического планирования в обеспечении национальной безопасности, его теоретико-методологические основы, цели и задачи, отличия от традиционного стратегического планирования, механизмы выявления, оценки и управления рисками, а также специфические особенности формирования и реализации стратегических решений в условиях меняющейся среды безопасности.

Ключевые слова: *национальная безопасность, риск, стратегическое планирование, оценка, показатель, выявление и управление рисками.*

Роль стратегического планирования в обеспечении национальной безопасности и его влияние на управление рисками

Шахзод ФАЙЗИЕВ,
Независимый исследователь Высшей школы стратегического анализа и прогнозирования

The role of strategic planning in ensuring national security and its impact on risk management

Shahzod FAYZIYEV,
Independent researcher at the Higher School of Strategic Analysis and Forecasting

Abstract: this article comprehensively examines the role and significance of strategic planning in ensuring national security, its theoretical and methodological foundations, goals and objectives, its distinguishing features from traditional strategic planning, mechanisms for identifying, assessing, and managing risks, as well as the specific characteristics of formulating and implementing strategic decisions in a changing security environment.

Keywords: *national security, risk, strategic planning, assessment, indicator, risk identification and management.*

Dunyo hamjamiyatida globallashuv jarayonlarining tezlashuvi, xalqaro maydonda yuz berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar va noan’anaviy tahdidlarning ortishi sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’kidlash kerakki, zamonaviy dunyoda xavfsizlikka nisbatan bo‘layotgan tahdidlar nafaqat harbiy-siyosiy, balki iqtisodiy, axborot, ekologik va ijtimoiy ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Bunday murakkab va tez o‘zgaruvchan muhitda davlat boshqaruvi organlari oldida tahdidlarning oldini olish, ularga nisbatan o‘z vaqtida muqobil choralar ko‘rish va mavjud resurslarni maqsadli yo‘naltirish vazifasi turadi.

Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda, global iqtisodiyotdagi noaniqliklar qancha davom etishini hech kim oldindan ayta olmaydi, shu sababli, har qanday rahbar xatarni hisobga olgan holda o‘z yo‘nalishida qo‘shimcha zaxiralarini safarbar qilishga tayyor bo‘lishi shart [1]. Qolaversa, so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davlat organlari va tashkilotlari faoliyatni baholashning aniq indikatorlarini, kutilayotgan natijalarni va xavf-xatarlarni oldindan prognoz qilish tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoni bilan 2025- yil 1-yanvardan boshlab, moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun tegishli davlat organlari va tashkilotlarida **“Xavflarni boshqarish”** qo‘mitalari tuzilishi belgilandi. O‘z navbatida, ularning asosiy vazifasi sifatida strategik rejalashtirishga mas’ul tuzilmalar tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bilan bog‘liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro‘yxatini shakllantirish va yangilab borilishini ta’minlash qayd etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi “2025-2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 446-son qarorida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni boshqarish to‘rt bosqichda: xavflarni aniqlash, ularni baholash, bartaraf etish choralarini ko‘rish hamda monitoring qilish asosida tashkil etilishi ta’kidlandi. Shu

asosda tadqiqot ishining dolzarbligini quyidagi omillar bilan asos-lash mumkin:

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 2026-yil davomida 45 ta yangi turdagi strategik rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish, 12 ta o‘z dolzarbligini yo‘qotgan amaldagi strategik rejalashtirish hujjatlarining o‘rniga yangi tahrirdagilarini qabul qilish hamda 73 ta konsepsiya va 33 ta strategiyani “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsad va ko‘rsatkichlariga moslab, qayta ko‘rib chiqish kabi vazifalarning qo‘yilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrdagi “Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-394-son qarorida vazirlik va idoralarga o‘z sohalari bo‘yicha qabul qilingan strategik rejalashtirish hujjatlarining dolzarbligi, keltirilgan maqsadlarning zamonaviy tahdid va vazifalarga mosligi hamda strategik rejalashtirish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini ta’minlash belgilanganligi;

tashqi va ichki tahdidlar ta’sirining ortishi negizida uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlarini ta’minlash zarurati;

amalga oshirilayotgan islohotlarni jamiyat hayotida to‘liq aks etishini ta’minlashning zamonaviy mexanizmlariga talabning ortishi;

strategik qarorlar qabul qilish jarayonida miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, ularning haqqoniy ta’sirini ifodalab beruvchi indikatorlarni joriy etishning dolzarblashuvi;

noaniqlik va tez o‘zgaruvchan muhitda davlat boshqaruvi barqarorligini oshirish maqsadida voqea-hodisalarni oldindan prognoz qiluvchi modellarni ishlab chiqishga bo‘lgan talabning ortishi.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi – milliy xavfsizlikni ta’minlash tizimida strategik rejalashtirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini tizimli tahlil qilish va xavflarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Milliy xavfsizlik va strategik rejalashtirish masalalari siyosatshunoslik, davlat boshqaruvi va milliy xavfsizlik nazariyasi doirasida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlarni, shartli ravishda, ikkita yirik guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruh tadqiqotlari bevosita milliy xavfsizlik va uning tarkibiy qismlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bunda, dastavval, **“xavfsizlik”** tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa siyosiy tushunchalar kabi, “xavfsizlik” tushunchasi ham bahsli tarzda va turli xil kontekstlarda ta’riflanadi. "Xavfsizlik" atamasining kelib chiqishi fransuz va lotin tillariga borib taqaladi. Bu so‘z fransuzcha “securite” yoki lotincha “securitas” so‘zidan olingan deb taxmin qilinib, barcha lug‘at va ensiklopediyalarda "xavfsizlik" atamasi – “qo‘rquv, xavf-xatar va mahrum bo‘lish tahdidlaridan xoli bo‘lish (erkinlik)” deb ta’riflanadi [2].

Xalqaro munosabatlar va xavfsizlik masalalari bo‘yicha dunyoga mashhur

siyosatshunos va nazariyotchi Barri Buzanning ta’kidlashicha, xavfsizlik tahdidlardan xoli bo‘lishga intilishdir [3]. Anton Grizald esa, xavfsizlikka: “ijtimoiy faoliyat orqali xavfsizlik holatini o‘rnatishga qaratilgan insonning ongli sa’y-harakatidir", deya ta’rif berib, xavfsizlikni tirik organizm uchun eng asosiy dastlabki shart sifatida tavsiflagan. Uning so‘zlariga ko‘ra: "Evolyutsion nuqtayi nazardan, xavfsizlik biologik mexanizm sifatida – organizmning yashab qolishga intilishi va atrof-muhitdan kelayotgan xavf-xatarga moslashuvi sifatida, biologik jihatdan esa, asosiy hayotiy funksiyalar amalga oshishining asosiy shartidir" [4].

Umuman olganda xavfsizlik, lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra, **xavf-xatarning yo‘qligi, xavfdan xolilik, xavf bo‘lmagan holat** ma’nolarini anglatadi [5].

Zamonaviy siyosiy-huquqiy fanlar va davlat boshqaruvi nazariyasida esa “xavfsizlik” tushunchasi faqatgina tahdidlarning passiv ravishda mavjud emasligi bilan cheklanmaydi. Aksincha, xavfsizlik – bu tizimning har qanday ichki va tashqi destruktiv ta’sirlarga bardosh bera olish, inqirozli vaziyatlarda o‘zining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish hamda mavjud tahdidlarga qaramasdan, barqaror rivojlanishda davom etish qobiliyatini ifodalovchi uzluksiz, dinamik jarayondir.

Umumiy va individual "xavfsizlik" holatidan siyosiy darajaga, ya’ni davlat va millat miqyosida ifodalash, tabiiyki, "milliy xavfsizlik" fenomenini vujudga keltiradi. Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida va klassik siyosatshunoslikda bu tushuncha, asosan, harbiy-mudofaa nuqtayi nazaridan – davlat chegaralarini tashqi tajovuzdan saqlash va jismoniy omon qolish ma’nosida talqin qilingan bo‘lsa, bugungi globallashuv sharoitida uning mazmun-mohiyati misli ko‘rilmagan darajada kengaydi.

Bugungi kunda **milliy xavfsizlik** – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati sifatida talqin etilmoqda [6]. Ya’ni o‘z ichiga davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, konstitut-siyaviy tuzumining daxlsizligini, shuning-dek, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va axborot muhitidagi barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi institutsional shart-sharoitlar majmuini qamrab oladi.

Professor I. Boboqulov milliy xavfsiz-likni usqurtma sifatida talqin etib, uning moddiy asosini milliy manfaat tashkil etishini ta’kidlaydi. Ya’ni mazkur katego-riyalar o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lib, o‘zaro ta’sirda rivojlanuvchi xavfsizlik siyosatining ikki bosqichini: siyosatni shakllantirish va ifoda etish hamda uni amalga oshirishni ifodalaydi. Ushbu ma’noda milliy xavfsizlik – bu muhim hayotiy milliy manfaatlarni himoya qilish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan siyosatdir [7].

Demak, muhim hayotiy milliy manfa-atlar (xavfsizlik obyektlari) xavfsizlik (siyo-sati) subyektlari tomonidan anglab yetiladi-gan, tizimga solinadigan, tegishli siyosiy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yiladigan, uning ma’lum tarixiy davrda barqarorligi, farovonligi va taraqqiyotining zarur hamda himoya qilinishi shart bo‘lgan shaxs, jamiyat va davlatning obyektiv ehtiyojlaridir.

Ikkinchi guruh olimlari strategik rejalashtirishning umumiy nazariy-metodologik asoslari va uning davlat boshqaruvidagi o‘rnini tadqiq etishgan.

Xususan, I. Ansoff, G. Minsberg va M. Porter kabi klassik maktab namoyandalari strategik boshqaruvning korporativ sektordan davlat boshqaruviga ko‘chish evolyutsiyasini tahlil qilganlar.

Jumladan, amerikalik matematik va iqtisodchi I. Ansoff strategik boshqaruvning korporativ darajadagi asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri bo‘lib, ma’lum bir subyektning o‘sishi va rivojlanishini tashqi muhit, ichki imkoniyatlar va strategik qarorlar bilan bog‘lash masalalarini tahlil qilgan.

Ularning fikricha, strategik rejalashtirish – bu noaniqlik sharoitida tashkilotning o‘z maqsadlariga erishish uchun mavjud resurslarni optimal taqsimlash san’atidir [8]. Uning yondashuvi milliy xavfsizlik uchun shu jihatdan ahamiyatliki, davlat ham o‘zining ichki resurslari va tashqi muhitdagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi nisbatni doimiy baholashi zarur. Masalan, iqtisodiy salohiyatning o‘zgarishi, texnologik qaramlik, strategik resurslarga ehtiyoj, tashqi bozorlar va xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlar hisobga olinishi lozim.

Biznes strategiyasi bo‘yicha dunyodagi eng nufuzli nazariyotchilardan biri kanadalik olim va professor G. Minsberg esa strategiyani faqat oldindan ishlab chiqilgan reja sifatida tushunishni yetarli deb hisoblamaydi. Balki qarorlar oqimida namoyon bo‘ladigan muayyan tabiiy jarayon sifatida tadqiq qiladi. Muallif strategiya shakllanishida rejalashtirilgan va amalda yuzaga kelgan strategiya o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi hamda strategiyaning dinamik muhit va tashkilotning ichki jarayonlari o‘zaro ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydi [9]

Uning fikrlaridan milliy xavfsizlik sohasida muhim xulosa kelib chiqadi: xavfsizlik strategiyasi bir marta qabul qilinib, o‘zgarmas holda amalga oshiriladigan hujjat emas, balki muhit o‘zgarishlariga mos ravishda yangilanib borishi kerak bo‘lgan dinamik tizimdir.

Garvard biznes maktabi professori M. Porter strategik boshqaruvning yana bir muhim yo‘nalishi – raqobat strategiyasini rivojlantirib, ma’lum bir subyekt strategiyasini shakllantirishda tarmoqdagi raqobat muhitini tahlil qilishning ahamiyatini asoslagan [10]. Strategik rejalashtirishning davlat sektoriga moslashuvi xususiy sectordagi raqobat, foyda va bozor ustunligiga asoslangan yondashuvlarni davlat boshqaruvining jamoat manfaati, ko‘p tomonlama manfaatdor subyektlar, siyosiy muhit va jamoat oldidagi hisobdorlik kabi xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mazkur tendensiya strategik qarorlarni ishlab chiqishda noaniqlik va xavf-xatarlarni hisobga olishni strategik rejalashtirishning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Shu boisdan, strategik rejalashtirish borasida o‘rganishlar olib borgan har bir tadqiqotchi, o‘z tadqiqot obyektining bir qismi sifatida xavf va uni baholashga oid tendensiyalarni tahlil qilmoqda hamda bu borada o‘z ilmiy xulosalarini ilgari surmoqda.

Xususan, A.Xolov globallashuv sharo-

itida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda risklarni baholash masalasini tahlil qilar ekan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida qabul qilinayotgan qaror natijalari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ma’lum bir indikatorlar asosida baholanayotganini ta’kidlab, risklarni baholashda zamonaviy usul va uslublarga bo‘lgan zarurat saqlanib qolayotganligini asoslaydi [11].

Shu asosda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda: risk kategoriyasini to‘g‘ri belgilash, turlarini anglash, ta’sir ko‘lamini to‘g‘ri baholash, uni vujudga keltiruvchi omillarni tahlil qilish, risklarni kompleks yondashuv asosida baholash, risk darajasini rentabellik darajasi bilan taqqoslash, qarorning tashkilot strategiyasi (maqsadlari)ga muvofiqligini tekshirish hamda risk darajasi va ta’sirini tashkilotning moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy imkoniyatlari bilan taqqoslash kabi tamoyillarini ilgari suradi.

Umuman olganda, “milliy xavfsizlik” va “strategik rejalashtirish”, tabiatiga ko‘ra, murakkab tushuncha hisoblanadi.

Xususan, “milliy xavfsizlik” vaqt, makon va zamon tanlamaydi, ya’ni har qanday holatda va vaqtda milliy manfaatlarning ta’minlanganlik holatini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim ehtiyojlarini qamrab oladi. “Strategik rejalashtirish” esa, vaqt masalasini hisobga oladi, ya’ni hozirgi vaqtda erishilgan natija oldingi davrda ishlab chiqilgan muayyan strategiyaning hosilasi, kelajak esa endi rejalashtirilayotgan hodisa-voqealarning natijasidir.

Aynan, vaqt masalasida milliy xavfsizlik va strategik rejalashtirish trayektoriyasi tutashadi hamda aynan shu nuqtada o‘zaro hisoblashadi.

Ushbu ilmiy maqolada qo‘yilgan vazifalarni hal etish, milliy xavfsizlik tizimida strategik rejalashtirishning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish va xavfsizlik indikatorlarini baholash maqsadida, kompleks tahlil, ya’ni tizimli tahlil, institutsional yondashuv va qiyosiy-huquqiy tahlil usullari qo‘llanildi.

Milliy xavfsizlikni ta’minlash doimiy ravishda davlat oldida turgan eng muhim vazifa bo‘lib kelgan.

Biroq, an’anaviy yondashuvlarda xavfsizlik ko‘proq hozirgi rejimda, ya’ni sodir bo‘lgan voqea-hodisalarga, vujudga kelgan inqirozlarga javob qaytarish shaklida faoliyat yuritmoqda. Bugungi murakkab geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bunday yondashuv o‘zini oqlamasligi ayon bo‘lmoqda. Aynan shu nuqtada strategik rejalashtirish instituti oldinga chiqadi va boshqaruvning tahdidlarni oldindan ko‘ra bilish, ularning sabab va sharoitlarini modellashtirish va profilaktika qilish modeliga o‘tishni ta’minlaydi.

Shu boisdan, strategik rejalashtirishning xavfsizlik tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

milliy xavfsizlik sohasida strategik rejalashtirish boshqa sohalardagi rejalashtirishdan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan keskin farq qiladi. Masalan, xavfsizlik sohasida tahlil uchun zarur bo‘lgan axborotlar, ko‘pincha, yopiq xususiyatga ega bo‘lib, ular bilan ishlashda maxsus axborot bazalari va yuqori darajadagi himoyalangan tizimlar talab etiladi;

tahdidlarning dinamikligi, ya'ni xavf-xatarlar juda tez o‘zgaradi, strategik rejalar o‘ta qat'iy bo‘lmasligi, balki vaziyatga qarab moslasha oladigan xususiyatga ega bo‘lishi talab etiladi;

xavfsizlikni ta'minlash bitta idoraning vazifasi emas, balki kuch ishlatar tuzilmalar va ijtimoiy-iqtisodiy sohaga mas'ul davlat organlari va tashkilotlarini yagona maqsad sari muvofiqlashtirish shart.

Qisqa ifoda etganda, milliy xavfsizlikda strategik rejalashtirishning birinchi va eng muhim vazifasi – davlatning uzoq muddatli ustuvorliklarini xavfsizlik nuqtayi nazaridan aniq belgilashdir. Shu boisdan, tadqiqot ishi mohiyatini ochib berish maqsadida, strategik rejalashtirish tizimini an'anaviy hamda milliy xavfsizlik doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Bunda, milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirishni an'anaviy strategik rejalashtirish bilan farqlash lozim bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirish bilan an'anaviy strategik rejalashtirishning farqli tomonlari

Farqlash mezonlari	**An'anaviy strategik rejalashtirish**	**Milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirish**
Asosiy maqsad	Muayyan subyektning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi, samaradorligi va moliyaviy natijalarini oshirishga qaratilgan.	Oliy maqsad – davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va konstitutsiyaviy tuzumini saqlab qolish. Ya'ni davlat uchun taraqqiyotdan ko‘ra ko‘proq, shu taraqqiyotni amalga oshirish uchun hayotiy zarur bo‘lgan "xavfsiz muhitni" kafolatlash muhim ahami-yatga ega hisoblanadi.
Obyekt	Odatda, ma'lum bir soha yoki sektor doirasida *(masalan, ta'lim, sog‘liqni saqlash)* cheklanadi va markazlashadi.	Butun davlat organlari va tashkilotlarining milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi faoliyati o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Strategiya o‘ta kompleks bo‘lib, butun davlat apparatining resurslarini integratsiya qilishni talab etadi. Masalan, Mudofaa doktrinasi, Milliy xavfsizlik konsepsiya kabi hujjatlar ishlab chiqiladi.
Resurslar taqsimoti	Har qanday strategik rejalashtirish hujjati resurslarning tejamkorligi tamoyiliga asoslanadi, shuning-dek, investitsiya oqimini oshirish, foyda keltirish hamda boshqa rejalashtirish obyekti tabiatiga mos talablar shakllanadi.	Resurslar tejamkorligi hisobga olinadi, biroq xavfsizlik iqtisodiy tejamkorlik va resurslar sarfidan ustun turadi. Davlat tinchlik va osoyishtalik hamda mudofaa salohiyatini saqlab turishga majbur. Bu yerda "iqtisodiy foyda" emas, "kafolatlangan himoya" tamoyili ustuvordir.

Vaqt qamrovi	Qat'iy belgilangan vaqt sikllariga ega *(masalan, qisqa, o'rta va uzoq muddatli strategik rejalashtirish hujjatlari).* Jarayonlar ushbu muddatlar davomida bir tekisda kechadi.	Ikkita qarama-qarshi vaqt gorizontini birlashtiradi: bir tomondan, 20-30 yillik geosiyosiy prognozlar va konsepsiyalar ishlab chiqilsa, ikkinchi tomondan, kutilmagan inqirozlar yuz berganda strategiya soatlar yoki daqiqalar ichida operativ ravishda o'zgartirilishi talab etiladi.
Huquqiy legitimlik	Doimiy ravishda strategik rejalashtirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ta'sirida amalga oshiriladi. *(O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 115-moddasi)*	Strategik qarorlar, ko'pincha, konstitutsiyaviy vakolatlar, davlat siri to'g'risidagi qonunlar va xalqaro huquq normalariga tayanadi. Zarur hollarda xavfsizlik strategiyasi davlatga favqulodda vakolatlarni *(masalan, favqulodda holat e'lon qilish, ayrim huquqlarni cheklash)* qo'llash huquqini beradi. *(O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 33 va 109-moddalari)*
Qaror qabul qilish tizimi	Qarorlar, ko'pincha, markazlash-magan holda, quyi bo'g'inlarga vakolatlarni berish va demokratik muhokamalar orqali qabul qilinadi. *(O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 123-moddasi)*	Qaror qabul qilish qat'iy iyerarxik va yuqori darajada markazlashgandir. Oliy Bosh qo'mondon va Xavfsizlik kengashi strategik yo'nalishlarni belgilaydi va bu direktivalar so'zsiz, muhokamalarsiz ijro etilishi uchun tegishli vazirlik va idoralarga tushiriladi. Bunda subordinatsiya va buyruqning so'zsiz bajarilishi tizimning asosiy talabidir. *(O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 109-moddasi)*
Axborot muhiti va maxfiylik	Yuqori darajada shaffoflikka, ochiq ma'lumotlar bazalariga va keng jamoatchilik muhokamasiga tayanadi. *(O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 36-moddasi)*	Strategiyalar, ko'pincha, cheklangan doiradagi shaxslar tomonidan, yuqori darajadagi himoyalangan tizimlarda ishlab chiqiladi hamda ular bilan tanishish, ijrosini amalga oshirish ham oldindan belgilangan subyektlar tomonidan bajariladi. *(O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 21 va 33-moddalari)*
Rejalashtirish usuli	Prognoz va bozor tendensiyalariga asoslangan maqsadli indikatorlar ko'proq ustuvor bo'ladi.	Bir nechta muqobil ssenariylar — bazaviy, salbiy, inqirozli va boshqa ehtimoliy holatlar oldindan ishlab chiqiladi.
Natijani baholash	Asosan, strategik rejalashtirish hujjati ilovalarida kelgan maqsadli ko'rsatkichlar orqali baholanadi.	Milliy xavfsizlik darajasi, davlatning barqarorligi, tahdidlarga tayyorgarlik, inqirozga chidamlilik, milliy manfaatlarni himoya qilish qobiliyati va jamoat xavfsizligi asosiy mezon hisoblanadi.

Manba: *Muallif ishlanmasi.*

Shu asosda aytish mumkinki, milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirish – shaxs, jamiyat va davlatning milliy manfaatlariga ta'sir etuvchi xavf va tahdidlarni oldindan aniqlash, ularning ehtimoli va oqibatlarini baholash hamda shu asosda strategik ustuvorliklarni belgilash, turli ssenariylarga tayyorgarlik ko'rish, shu bilan birga, milliy xavfsizlik natijalarini monitoring va qayta baholash asosida uzluksiz takomillashtirib borishga qaratilgan ko'p subyektli va integratsiyalashgan boshqaruv jarayonidir. Biroq har ikkala yondashuv uchun ham umumiy bo'lgan muhim fundamental qonuniyatlar saqlanib qolishini ta'kidlab o'tish zarur.

Xususan, strategik maqsadlarning aniq va o'lchanadigan tarzda belgilanishi, mavjud ichki va tashqi muhitni kompleks tahlil qilish, kuch-vositalarni strategik ustuvorliklar asosida taqsimlash, ehtimoliy xavf va noaniqliklarni oldindan baholash, muqobil harakat variantlarini ishlab chiqish hamda belgilangan strategiyaning ijrosini muntazam monitoring qilish an'anaviy va milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirish uchun umumiy fundamental asos hisoblanadi.

Ya'ni, an'anaviy strategik rejalashtirishda maqsad, resurs, muhit va natija o'rtasidagi bog'liqlik qanday ahamiyatga ega bo'lsa, milliy xavfsizlik jihatidan strategik rejalashtirishda ham ushbu bog'liqlik saqlanib qoladi. Farq shundaki, mazkur jarayonga milliy manfaatlar, xavf va tahdidlar, ssenariyli yondashuv, inqirozga tayyorgarlik va milliy barqarorlik kabi qo'shimcha elementlar kiritiladi.

Shu asosda milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirishni an'anaviy strategik rejalashtirishdan mutlaqo alohida va mustaqil jarayon sifatida emas, balki umumiy strategik rejalashtirish qonuniyatlariga tayangan, biroq milliy manfaatlar va xavfsizlikning o'ziga xos talablari bilan murakkablashgan strategik boshqaruv shakli sifatida baholash mumkin. Shuningdek, an'anaviy strategik rejalashtirishda ham xavf bilan "hisoblashiladi", ya'ni rejalashtirish obyekti "o'qi" atrofida unga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar strategiyani ishlab chiqishda inobatga olinadi.

Bunda xavf strategik rejalashtirishning mustaqil maqsadi emas, balki belgilangan maqsadlarga erishish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omil sifatida qaraladi. Shu sababli, an'anaviy strategik rejalashtirishda xavflarni aniqlash va baholash, odatda, strategik maqsadlarning amalga oshishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan omillarni oldindan aniqlash hamda ularning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi.

Milliy xavfsizlik doirasida esa mazkur munosabat birmuncha o'zgaradi. Bu yerda xavf va tahdidlar nafaqat strategik maqsadlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil, balki strategiyaning shakllanishini belgilab beruvchi asosiy kategoriyalardan biriga aylanadi. Ya'ni an'anaviy strategik rejalashtirishda mantiq ko'proq "maqsad-ta'sir ko'rsatuvchi xavf-xatar-xavfni boshqarish strategik ustuvorlik - maqsad - chora-tadbir" ko'rinishida bo'lsa, milliy xavfsizlikda "milliy manfaat - xavf va tahdid - strategik ustuvorlik - maqsad - chora-tadbir" mantig'i ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi ““Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasini tasdiqlash hamda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-66-son Farmonida 2030-yilga qadar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yoshlar sonini 2026-yilga nisbatan 30 foizga oshirish maqsad qilingan.

Uni amalga oshirishda quyidagi xavflarning yuzaga kelish ehtimoli mavjud:

1. Hududlarda yoshlarnining loyihalarini to‘liq baholamasdan yoki real imkoniyat-larini inobatga olmasdan tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish holatlari kuzatilishi mumkin. Bunda faqat qog‘ozda mavjud bo‘lgan, ammo hech qanday tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan tadbir-korlik subyektlari shakllanishi ehtimoli mavjud.

2. Bankrotlik va kredit qarzdorligining yuzaga kelishi. Tadbirkorlikni boshlagan yoshlarning ma’lum qismi moliyaviy savodxonlik, biznes-reja va hayotiy tajribaga yetarli darajaga ega bo‘lmaganligi bois yirik qarzdorlik yoki bankrotlik holatiga uchrashishi mumkin.

3. Korrupsiya omili, shu jumladan, imtiyozli mablag‘larni talon-toroj qilish. Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar va boshqalarni ayrim mansabdor shaxslar yoki yirik tadbirkorlar o‘z manfaati yo‘lida foydalanishi ehtimoli mavjud.

Agar yuqorida keltirilgan xavflar milliy xavfsizlik doirasida ko‘rilsa, xavfning “yuki” ancha ortadi (2-jadval).

2-jadval

Muayyan xavflarni milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirish va an’anaviy strategik rejalashtirish doirasida ta’sirini aniqlash

(Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030 strategiyasida keltirilgan “2030 yilga qadar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yoshlar sonini 2026-yilga nisbatan 30 foizga oshirish maqsad”i misolida)

Xavflar	An’anaviy strategik rejalashtirish	Milliy xavfsizlik doirasidagi strategik rejalashtirish
Hududlarda yoshlarning loyihalarini to‘liq baholamasdan yoki real imkoniyatlarini inobatga olmasdan tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish	Statistik ko‘rsatkich buzi-ladi, strategiya indika-torining haqqoniyligi pasayadi.	Sun’iy statistika davlat resurslarining noto‘g‘ri taqsimlanishiga, iqtisodiy siyosat samaradorligining pasayi-shiga, yoshlar bandligi muammosi-ning yanada kuchayishiga, ijtimoiy norozilik xavfining ortishi hamda ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir-larning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.
Bankrotlik va kredit qarzdorligining yuzaga kelishi	Moliyaviy savodxonlikning pasayishiga, biznes muvaf-faqiyatsizligiga, kreditni qaytarishda qiyinchilik va bankrotlikka olib kelishi mumkin.	Yirik kredit qarziga botgan, mol-mulkidan ayrilgan va umidsizlikka tushgan yoshlar qatlami davlat uchun eng katta ichki xavf manbaidir. Bunday marginallashgan qatlam osonlik bilan, uyushgan jinoiy guruhlar safiga qo‘shiladi *(talonchilik, firibgarlik va giyohvand moddalar savdosi ortadi)*, diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlar uchun eng qulay “o‘lja”ga aylanadi, chyet elga noqonuniy migrant sifatida chiqib ketishga urinadi.

Korrupsiya omili	Ajratilgan mablag‘larning samarasiz ishlatilishi hamda strategiya maqsadlariga erishilmasligiga olib kelishi mumkin.	Davlat resurslarining maqsadsiz sarflanishi, davlat institutlariga ishonchning pasayishi, adolatsizlik hissining kuchayishi va ijtimoiy beqarorlik xavfining ortishiga olib keladi hamda davlatning institutsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Manba: *Muallif ishlanmasi.*

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, milliy xavfsizlik tizimida xavfning turi, tabiati, yuzaga kelish manbalari, namoyon bo‘lish shakllari va ehtimoliy oqibatlari hamda darajalari mavjud bo‘lib, strategik rejalashtirishda ularni hisobga olish shart hisoblanadi.

Professor I.Boboqulov xavflarni ta’sir ko‘rsatish obyekti, xavfsizlik sohalari, makon yoki ko‘lami, namoyon bo‘lish uslubi va shakllari, manbalari va harakatlantiruvchi kuchi hamda ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab ma’lum turlarga ajratadi [6].

Strategik rejalashtirishda ham yuqorida keltirilgan xavflarning xususiyatlari hisobga olinadi, biroq ular umumiy emas, balki rejalashtirishning muayyan bosqichi asosiy jihatlaridan kelib chiqib alohida o‘rganiladi, xususan:

birinchi bosqich, ya’ni strategiyaga bo‘lgan zaruratni asoslash va joriy holatni tahlil qilishda oldingi strategik rejalashtirish hujjatlarning yakuniy natijalaridan kelib chiqib, yuzaga kelgan xavflar ta’sir ko‘rsatish obyekti (tashqi va ichki), makon yoki ko‘lami (milliy, mintaqaviy va xalqaro), manbalari va harakatlantiruvchi kuchi (tabiiy va inson faoliyati bilan bog‘liq) tahlil qilinadi hamda yangi hujjatga bo‘lgan ehtiyoj tasdiqlanadi yoki bekor qilinadi;

ikkinchi bosqich, ya’ni ustuvor yo‘nalishlar va maqsadlarni belgilashda xavfsizlik sohalari (iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ekologik va boshqalar) xususiyatidan kelib chiqib, strategiya qaysi tarmoq yoki hudud kesimida ishlab chiqilayotgan bo‘lsa, shu yo‘nalishlar tabiatiga mos ravishda xavflarning yuzaga kelish ehtimolligi va ta’siri o‘rganiladi hamda xavfning namoyon bo‘lish uslubi va shakllariga ko‘ra ishlab chiqilgan ustuvor yo‘nalish va maqsadlar tahrirlanadi yoki aslicha qoldiriladi;

uchinchi bosqich, ya’ni chora-tadbirlarni ishlab chiqish va resurslarni taqsimlashda xavflarning yuzaga kelish ehtimolligi va ijtimoiy xavflilik darajasi (risk, tahlika, xavf, tahdid) hisobga olinadi hamda shu asosda qo‘shimcha resurslar yo‘naltirish mumkinligi to‘g‘risida strategik qarorda norma kiritiladi;

to‘rtinchi bosqich, strategik rejalashtirish hujjatida keltirilgan ustuvor yo‘nalish va maqsadlarni baholashda xavflarning ijtimoiy xavflilik darajasi (risk, tahlika, xavf, tahdid) hisobga olinadi, bu bilan erishilgan qiymatdan yuzaga kelgan xavf-xatar natijasida, yo‘qotilgan resurslar chegirib tashalanadi hamda strategiyaning haqiqiy samaradorlik ko‘rsatkichi asoslab beriladi.

Shu tariqa, strategik rejalashtirish jarayonida xavflar bir marta baholanadigan

statik omil sifatida emas, balki ushbu jarayonning har bir bosqichida yuqorida keltirib o‘tilgan xavfning turli xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladigan dinamik kategoriya sifatida qaralishi lozim.

Olib borilgan tadqiqot natijalari strategik rejalashtirish an’anaviy boshqaruv amaliyoti doirasidagina emas, balki milliy xavfsizlikni ta’minlashning ham muhim institutsional va metodologik vositasi ekanligini ko‘rsatdi.Biroq, milliy xavfsizlik sohasida strategik rejalashtirish an’anaviy strategik rejalashtirishdan tubdan uzilgan alohida jarayon bo‘libgina qolmasdan, strategik rejalashtirishning umumiy fundamental qonuniyatlari – aniq maqsad belgilash, mavjud resurslarni hisobga olish, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, xavflarni baholash, natijadorlikni monitoring qilish va strategiyani qayta ko‘rib chiqish kabi tamoyillarni saqlab qolgan holda, ularni milliy manfaatlar va xavfsizlik muhitining o‘ziga xos xususiyatlari bilan kengaytiradi.

Tadqiqotda aniqlanganidek, an’anaviy strategik rejalashtirishda xavf, asosan, belgilangan strategik maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan omil sifatida qaraladi hamda ularni bartaraf etish choralarini talab etadi. Agar xavf-xatar mavjud bo‘lsayu, uning oldi olinmasa, u milliy xavfsizlikka tahdidga aylanadi.

Milliy xavfsizlik doirasida esa, xavf-xatarning ahamiyati uning muayyan tashkilot yoki dastur natijasiga emas, balki milliy manfaatlar, davlat va jamiyat barqarorligi, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik, suverenitet hamda strategic salohiyatga ta’siri bilan belgilanadi. Milliy xavfsizlikni ta’minlashda strategik rejalashtirishning samaradorligi faqat belgilangan maqsadlarga qay darajada erishilgani bilan emas, balki xavf-xatarlarni qanchalik erta aniqlash, ularni qanchalik aniq baholash, resurslarni xavf darajasiga mos ravishda taqsimlash va o‘zgaruvchan xavfsizlik muhitiga strategik tizimning qanchalik tez moslasha olishi bilan ifodalaniladi.

Shu asosda “milliy xavfsizlik” shaxs, jamiyat va davlat milliy manfaatlarining himoyalanganlik holati bo‘lsa, “strategik rejalashtirish” ushbu milliy manfaatlarning istiqbolda ta’minlovchi vosita hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi **takliflar** ilgari suriladi:

1. Xavf-xatarlarni baholashning yagona metodologik yondashuvini ishlab chiqish. Bunda xavfni baholashda xavfning manbasi, yuzaga kelish ehtimoli, ta’sir darajasi va doirasi, davomiyligi, milliy manfaatlarga ta’siri, boshqa xavflar bilan o‘zaro bog‘liqligi, ehtimoliy salbiy oqibatlari, mavjud boshqaruv salohiyati hamda xavfni kamaytirish uchun zarur resurslarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

2. Milliy xavfsizlik uchun xavf indikatorlari va erta ogohlantirish indikatorlari tizimini shakllantirish. Strategik rejalashtirish faqat sodir bo‘lgan holatlarni baholashga emas, balki xavf-xatarning kuchayishini oldindan aniqlashga yo‘naltirilishi kerak. Shu maqsadda har bir strategik sohada xavfning o‘sishi yoki pasayishini ifodalovchi asosiy xavf indikatorlari ishlab chiqilishi lozim.

3. Strategik hujjatlarni xavf-xatarlar bilan majburiy bog‘lash mexanizmini

kuchaytirish. Har qanday strategik hujjatda “maqsad – ko‘rsatkich –ehtimoliy xavf – xavf indikatori – profilaktik chora – mas’ul subyekt – resurs –monitoring mezoni” o‘rtasidagi bog‘liqlik aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

4. Strategik rejalashtirishda ssenariyli baholashni kengaytirish. Noaniqlik yuqori bo‘lgan milliy xavfsizlik muhitida bitta prognozga tayanish o‘rniga bazaviy, salbiy, inqirozli va muqobil ssenariylar ishlab chiqilishi hamda har bir ssenariy bo‘yicha davlatning mavjud resurslari va javob berish qobiliyati baholanishi lozim.

5. Strategik rejalashtirish hujjatlarini davriy emas, xavf muhiti o‘zgarishiga qarab qayta baholash amaliyotini joriy etish. Agar tashqi yoki ichki xavfsizlik muhiti keskin o‘zgarsa, strategik hujjatning belgilangan muddati tugashini kutib o‘tirmay, qayta baholash va zarur hollarda unga tuzatish kiritish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbyekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/8834.
2. O‘zbek tilning izohli lug‘ati. 4-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. –606-b.
3. Buzan B. People, states and fear: An Agenda for security Analysis in the Post-Cold War Era. – Brighton: Wheatsheaf, 1991.
4. Grizold A. The concept of National Security in the Contemporary World // International Journal on World Peace. – 1994. – Vol. 11, № 3. – P. 37–53. – URL: www.jstor.org/stable/20751984
5. Bobokulov I.I. Milliy xavfsizlikni ta’minlashning nazariya va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T., 2019. – 115 b.
6. Boboqulov I.I. va boshqalar. Xavfsizlik asoslari: darslik / – Toshkent: Complex print, 2025. – 280 b.
7. Boboqulov I. “Milliy xavfsizlik” tushunchasining konseptual tahlili. // “Jamiyat va boshqaruv”. 2013, № 3. – 47 b.
8. Ansoff H. Igor. Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion. – New York: McGraw-Hill, 1965. – 241 p.
9. Mintzberg H. The Rise and Fall of Strategic Planning: Reconceiving Roles for Planning, Plans, Planners. – New York: The Free Press, 1994. – 458 p.
10. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 1980. – 396 p.
11. Xolov A. Strategik qarorlar qabul qilishda risklarni baholash. // “Jamiyat va boshqaruv”. 2025, № 2. – 92 b.